

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

Izoh: 2024-yil yanvar-sentabr hamda 2024-yil
1-oktabr holatiga ma'lumotlar dastlabki, qolgan
davrlar bo'yicha yakuniy ma'lumotlar keltirilgan.



TOSHKENT VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning 1- oktabr holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 094,9 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 43,1 ming kishiga yoki 1,4 % ga ko'paydi. Shundan, 1 548,3 ming kishi shahar joylarida (jami aholi sonining 50,03 %) va 1 546,6 ming kishi qishloq joylarida (49,97 %) tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3 094,9 ming kishi

Tabiiy o'sish

+42,0 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



50,03 %

Qishloq



49,97 %

Aholining tabiiy harakati, kishi

2024- yil yanvar-sentabr

	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	o'sish, kamayish, +,-	2023- yil	2024- yil
Tug'ilganlar	54331	53201	-1130	24,1	23,1
O'lganlar	11255	12358	1103	5,0	5,4
Ko'chib kelganlar	21579	24943	3364	9,6	10,8
Ko'chib ketganlar	21540	22684	1144	9,6	9,9

	birlik			1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	o'sish, kamayish, +,-	2023- yil	2024- yil
Nikohlar	14617	14142	-475	6,5	6,1
Ajralishlar	3681	3447	-234	1,6	1,5

Toshkent viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-sentabr



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024- yil 1- oktabr holatiga



2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, Toshkent viloyatida doimiy aholisi sonining 30,1 % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 56,0 % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 13,9 % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Jinsi bo'yicha aholi tarkibi

2024- yil 1- oktabr holatiga



Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- oktabr holatiga, kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, %da
Viloyat bo'yicha:	3 036 568	3 094 870	101,9
shaharlar:			
Nurafshon	55 771	57 154	102,5
Olmalik	144 328	148 420	102,8
Angren	181 688	184 789	101,7
Bekobod	103 765	105 713	101,9
Ohangaron	41 222	41 879	101,6

	2023- yil	2024- yil	<i>O'sish sur'ati, %da</i>
Chirchiq	171 700	174 865	101,8
Yangiyo'l	84 347	86 956	103,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	111 661	113 545	101,7
Ohangaron	110 675	112 713	101,8
Bekobod	165 204	167 583	101,4
Bo'stonliq	176 270	177 750	100,8
Bo'ka	133 977	136 145	101,6
Quyi Chirchiq	115 447	117 272	101,6
Zangiota	169 987	174 304	102,5
Yuqori Chirchiq	138 519	141 063	101,8
Qibray	174 705	177 946	101,9
Parkent	177 229	181 050	102,2
Piskent	102 679	102 791	100,1
O'rta Chirchiq	136 364	139 593	102,4
Chinoz	144 820	147 535	101,9
Yangiyo'l	199 300	202 910	101,8
Toshkent	196 910	202 894	103,0


Viloyat hududida aholi sonining eng ko'p o'sishi 2024- yil 1- oktabr holatiga Yangiyo'l shahrida (103,1 %), Toshkent tumanida (103,0 %), Olmaliq shahrida (102,8 %) kuzatildi.

QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR (yanvar-sentabr)



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-sentabr, kishi




2024- yil yanvar-sentabr oylarida tug‘ilganlar soni 53 201 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (54 331 kishi) nisbatan 1130 taga kamaygan. Shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 23,1 promilleni tashkil qildi.




Vafot etganlarning asosiy o‘lim sabablari

2024- yil yanvar-sentabr, kishi




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **58,7 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **11,7 %** i – o‘simtalardan, **11,4 %** i boshqa kasalliklardan, **7,3 %** i baxtsiz hodisa zaharlanish va jarohatlanishlardan, **6,1 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **3,5 %** i ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,3 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan vafot etganlar.

VAFOT ETGANLAR (yanvar-sentabr)



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti


2024- yil yanvar-sentabr, kishi



2024- yil yanvar-sentabr oylarida 12 358 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,4 promilleni tashkil etdi.




QAYD ETILGAN NIKOHLAR (yanvar-sentabr)



Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti


2024- yil yanvar-sentabr, birlik



Nikoh tuzish koeffitsiyentining avvalgi yilga nisbatan eng ko'p pasayishi Ohangaron tumanida (1,6 promillega) va Parkent tumani (1,3 promillega) kuzatildi.




NIKOHDAN AJRALISHLAR (yanvar-sentabr)



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-sentabr, birlik




2024- yil yanvar-sentabr oylarida 3 447 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,5 promilleni tashkil etgan.



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-sentabr



2024- yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **48,0 %** i farzandsiz, **28,2 %** i bitta farzand bilan va **23,8 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(yanvar - sentabr)

(kishi)

Hudud nomi	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
Viloyat bo'yicha:	21 579	24 943	2 1540	22 684	39	2 259
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	699	901	308	491	391	410
Olmalik	1 150	1 064	1 125	1 159	25	-95
Angren	754	813	717	671	37	142
Bekobod	470	615	544	533	-74	82
Ohangaron	675	594	324	316	351	278
Chirchiq	2 111	2 047	1 629	1 425	482	622
Yangiyo'l	1 123	1 333	655	802	468	531
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	214	389	571	518	-357	-129
Ohangaron	684	661	748	878	-64	-217
Bekobod	401	275	666	844	-265	-569
Bo'stonliq	717	348	1 418	1 276	-701	-928
Bo'ka	217	390	670	648	-453	-258
Quyi Chirchiq	610	659	1 012	883	-402	-224
Zangiota	2 273	3 005	1 766	2 157	507	848
Yuqori Chirchiq	603	1 377	1 260	1 247	-657	130
Qibray	1 886	2 553	2 211	2 190	-325	363
Parkent	333	366	415	527	-82	-161
Piskent	341	505	768	626	-427	-121
O'rta Chirchiq	1 345	1 712	1 054	1 333	291	379
Chinoz	828	794	739	791	89	3
Yangiyo'l	1 609	1 897	1 669	1 929	-60	-32
Toshkent	2 536	2 645	1 271	1 440	1 265	1 205

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.